



INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

“Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Mamatisayeva Surayyo Axmadjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi ***Salohiddinova Mushtariybegim Jo‘raxon qizi***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimida bolalarni rivojlantirishning samarali pedagogik usullari tahlil qilingan. Maqolada barcha bolalarning, jumladan jismoniy, aqliy yoki psixologik imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga teng huquqli ishtirokini ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning individual yondashuvi, differensial o‘qitish, interaktiv metodlardan foydalanish va ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash kabi omillar muhim deb e’tirof etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inklyuziv sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bolalarning ijtimoiy integratsiyasini, o‘ziga ishonchini va bilim olish motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.*

Abstract: *This article analyzes effective pedagogical methods for the development of children in an inclusive education system. The article highlights the issues of ensuring equal participation in the educational process of all children, including students with physical, mental or psychological disabilities. It also recognizes the importance of factors such as the individual approach of teachers, differentiated teaching, the use of interactive methods and socio-emotional support. According to the results of the study, the use of innovative pedagogical technologies in inclusive classes plays an important role in increasing children's social integration, self-confidence and motivation to learn.*



Аннотация: В статье анализируются эффективные педагогические методы развития детей в системе инклюзивного образования. В статье освещаются вопросы обеспечения равного участия в образовательном процессе всех детей, включая учащихся с физическими, умственными и психологическими нарушениями. Также отмечается важность таких факторов, как индивидуальный подход педагогов, дифференцированное обучение, использование интерактивных методов и социально-эмоциональная поддержка. Согласно результатам исследования, использование инновационных педагогических технологий в инклюзивных классах играет важную роль в повышении социальной интеграции детей, уверенности в себе и мотивации к обучению.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, pedagogik usullar, rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar, individual yondashuv, differensial o‘qitish, ijtimoiy moslashuv.

Keywords: inclusive education, pedagogical methods, development, innovative technologies, individual approach, differentiated teaching, social adaptation.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогические методы, развитие, инновационные технологии, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, социальная адаптация.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri — har bir bolaning teng imkoniyat asosida ta’lim olishini ta’minlashdir. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasida ham dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarni, shu jumladan maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarni, umumta’lim muassasalarida birgalikda o‘qitish tizimidir. Pedagogik nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim jarayoni o‘qituvchidan ijodkorlik, sabr-toqat, individual yondashuv va turli metodlardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Shu sababli, bolalarni inklyuziv muhitda har tomonlama rivojlantirishning samarali pedagogik usullarini aniqlash va amaliyotga



tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasida" ...Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi"¹- deb bizning bosh, oliy qomusimizda belgilab o'tilgan.

Natijalar va mulohazalar

Natijada, o'tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va pedagogik tajribalar asosida inklyuziv ta'limda bolalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab olindi. Dastlab, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va individual yondashuv darajasi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qilishi kuzatildi. Ayniqsa, o'yinli va interaktiv metodlar qo'llanilganda, bolalarda darsga bo'lgan qiziqish, ishtirok faolligi va muloqot ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratilganda — ya'ni o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlovchi, mehribon, sabrli munosabat namoyon bo'lganda — maxsus ehtiyojga ega bolalar o'zini sinf jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qilgan. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini tezlashtirgan va o'z-o'ziga ishonchini kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv sinflarda quyidagi pedagogik usullar bolalar rivojlanishida eng samarali natija beradi:

1. Individual yondashuv — har bir bolaning ehtiyojiga qarab topshiriqlarni moslashtirish, bu ularning o'ziga ishonchini oshiradi.
2. Differensial o'qitish — o'quvchilar bilim darajasiga mos mashg'ulotlarni tanlash orqali ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.
3. Ko'rgazmali va interaktiv metodlar — o'yinli ta'lim, "aqliy hujum", "klaster", "fikrlar jadvali" kabi usullar bolalarning faolligini oshiradi.
4. Ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash — sinfdagi ijobiy psixologik muhit, o'qituvchi va sinfdoshlarning mehribon munosabati bolaning ijtimoiy integratsiyasini yengillashtiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil 50-modda



5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish — vizual materiallar, multimediali darslar, maxsus dasturlar orqali bolalarning bilim olish motivatsiyasi ortadi.

Ushbu metodlarning uyg'un qo'llanilishi natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 25–30 foizga, o'ziga ishonch va sinfdagi ijtimoiy faollik esa 40 foizga oshgani kuzatiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim jarayonida individual yondashuv, differensial ta'lim, interaktiv metodlar va ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlashning o'zaro uyg'unligi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatdi.

XULOSA

Inklyuziv ta'limda bolalarni rivojlantirish jarayoni murakkab bo'lishiga qaramay, u samarali pedagogik faoliyat hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, innovatsion, interaktiv va o'yinli metodlardan foydalansa, barcha o'quvchilar uchun qulay va motivatsion o'quv muhiti yaratiladi. Shu bilan birga, ijobiy psixologik muhit, bolalarni rag'batlantirish va ularning fikrini qadrlash, maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning sinf jamoasiga integratsiyasini osonlashtiradi va ularning o'ziga ishonchini oshiradi.

Shu sababli inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish, metodik qo'llanmalarni boyitish va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhimdir. Bu nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalarning, balki barcha o'quvchilarning ijtimoiy, intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, inklyuziv ta'lim har bir bolaning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlashda va ularning bilim olish, o'zini rivojlantirish va jamiyatga moslashish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv sinflarda darslarda faol ishtirok etish, bir-birimizni tushunish va hurmat qilish imkonini beradi, bu esa nafaqat bilim olish, balki jamiyatga moslashish va o'ziga ishonchni oshirishda ham foydali.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 50-moddasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli nutqi. — Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2021-yil.
4. Abdurahmonova N., Xolmatova D. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. "O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI" Teshaboeva Feruza Raximovna Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası dosenti, Yo'ldasheva Marg'iyona Asrorxon qizi Qo'qon universiteti Boshlang'ich talim yo'nalishi 1-kurs talabasi,
6. "Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilinishi-yutuq va muammolar"-Xayitgul Nesibovna Muzaffarova Jizzax davlat pedagogika universiteti